

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh. Xodjayeva

29-avgust 2025 yil

**MAKTABGACHA TA’LIMDA XORIJIY TAJRIBALARNING
QIYOSIY TAHLILI FANINING
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Mutaxassislik:	70110201 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

Fan /modul kodi MTXTQT2105		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ESTS - Kreditlar 5	
Fan /modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lajak tarbiyachilarni jahon va respublikamizda pedagogika taraqqiyotining qiyosiy tahliliga doir bilimlar bilan qurollantirish. Fanning vazifasi – talabalarni jahon va respublikamizda pedagogika fanining rivojlanishini qiyosiy tahlil qilishga o'rgatadi; jahon pedagogikasining rivojlanish tendensiyalarini to'la anglay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Fanning asosiy manbalari: Stanford Universityda o'qitiladigan kurslar: <i>International Comparative Education (ICE)</i> concentratsiyasi, shuningdek boshqa kurslar (masalan “The New Ecology of Early Childhood”, “Gender & Education in Global & Comparative Perspectives” va “Preschool Counts: Engaging Young Children in Math”) fan dasturlaridan foydalanildi. Bu kurslar maktabgacha ta'limga oid nazariy va amaliy jihatlarni, xorijiy tajribalar, ta'lim siyosati, pedagogika va bolalar taraqqiyoti kabi mavzularni o'z ichiga oladi. https://ed.stanford.edu/gce . II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fani haqida umumiy tushuncha Qiyosiy tahlil tushunchasi. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fanining maqsad va vazifalari. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili. Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari Fan taraqqiyotining birinchi davri. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotining ikkinchi va uchinchi davri, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot metodlari. Qiyosiy pedagogika rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyat				

YuNESKO tashkilotining taxlil sohasidagi faoliyati. YuNISEF, MOT(XMT) xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta'lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o'rni. AQSh ning TINChLIK KORPUSI va uning ish faoliyati.

Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari

Ta'limni isloh qilishda o'quv dasturlarining ahamiyati. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalashtirish va kasbga yo'naltirish masalalari. Ta'limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati.

Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil

Germaniyada ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Fransiya ta'lim siyosatining olib borilishi. Angliya ta'lim tizimi.

Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili

Yaponiya ta'lim tizimi va unga dahldor masalalarning olib borilishi. Koreya va Xitoyda ta'lim-tarbiya jarayonlari. Hindiston ta'lim tizimi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya tizimi va qiyosiy tahlil

AQSh va O'zbekiston ta'lim tizimining Qiyosiy tahlili . Rossiya va O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar: umumiylik va tafovut.

Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosliklari.

Qozog'istonda pedagogika fani rivojida o'ziga xos jihatlari. Qirg'iziston va O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili. Tojikiston va Turkmanistonda pedagogika fani rivoji.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fani haqida umumiy tushuncha.

2. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fanining taraqqiyot bosqichlari.

3. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati.

4. Jahon mamlakatlarida ta'lim taraqqiyotining ayrim masalalari.

5. Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlili

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Fan bo'yicha magistrning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

1. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimining integratsiyalashuvi.
2. Zamonaviy qiyosiy pedagogik masalalar taraqqiyoti.
3. Jahon mamlakatlarida qiyosiy pedagogika jamiyatlarining faoliyati va vazifalari.
4. Jahon mamlakatlarida qiyosiy pedagogik izlanishlarning ilmiy-nazariy manbalari.
5. Fransiya ta'lim tizimining «Dual bosqichi» xususiyatlari.
6. Hindiston ta'lim tizimi va qiyosiy tahlil.
7. Germaniyada bolalarning huquqiy vakolatlari.
8. Afrika mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonlari.
9. Italiya ta'lim tizimi.
10. Malayziya ta'lim tizimi.
11. Singapur ta'lim tizimi.
12. Kanadada ta'lim tarbiya jarayonlari.
13. Shvetsiyada umumta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
14. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida tarbiyaviy jarayonlarning etnik xususiyatlari.
15. Qiyosiy pedagogikaning xalqaro vazifalari.
16. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalash va differensiyalashtirish muammolari.
17. MDH davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari.
18. Jahonda masofaviy ta'limning rivojlanishi.

Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish, tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlar bo'yicha

	fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash, masofaviy ta'lim. Magistrga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yiga egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba • Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fanining maqsadi, vazifasi; • Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fanining rivojlanish bosqichlari; • Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati; • jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyoti masalalari haqida <i>bilimga</i>; • Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil; • Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili bo'yicha <i>ko'nikmaga</i> ; • rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya tizimi va qiyosiy tahlil; • Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosliklari bo'yicha <i>malakaga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va amaliy topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqni test shaklida topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar

	1. Sultonova N., Nazirova G., Maktabgacha ta'limda Qiyosiy pedagogika, o'quv qo'llanma/ Toshkent. Ilm va fan nashriyoti- 2022 yil 2. Esonova M, Maktabgacha pedagogika/ darslik/ Ilm va fan-2023 Qo'shimcha adabiyotlar 3. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Mirziyoyev Sh.M. ma'ruzasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b. 4. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”. – 2017.– 102b. 5. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b. 6. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947 sonli farmonni. 7. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. T.:2016y. 29-dekabr. 8. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 9. Nazirova G., Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari/ monografiya/ Gold Print -2018 yil Axborot manbalari 10.http://www.tdpu.uz 11.http://www.ziyonet.uz/ 12.http://www.google.co.uz/ 13.http://www.google.ru/ 14.http://www.biotehnolog.ru/ 15.https://ru.wikipedia.org/
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2025-yil 28-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar va dastur mualliflari: G. Nazirova – Qo'qon DU Maktabgacha ta'lim kafedrası professori, pedagogika fanlari bo'yicha PhD. N. Sultonova - Qo'qon DU Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti
9.	Taqrizchilar: N.Sh.Abdullayeva - Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, DSc, professor.

	M.X.Tadjiyeva – Toshkent pedagogika kolleji direktori, p.f.n., dotsent
--	--